

e-avtomaktab.uz PLATFORMASINING

MAXFIYLIK SIYOSATI

Versiya: v1.0

Kuchga kirish sanasi: 2026-yil 20-avgust

Asosiy tili: o'zbek tili, lotin yozuvi

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Maxfiylik siyosati (keyingi o'rinlarda — **“Siyosat”**) e-avtomaktab.uz platformasi va u bilan bog'liq xizmatlardan foydalanishda jismoniy shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarini yig'ish, olish, saqlash, tizimlashtirish, foydalanish, o'zgartirish, uzatish, bloklash, yo'q qilish va boshqa shaklda qayta ishlash tartibini belgilaydi.

1.2. Shaxsga doir ma'lumotlarning mulkdori va operatori:

“VATANPARVAR TASHKILOTI MARKAZIY KENGASHI TASARRUFIDAGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MARKAZI” unitar korxonasi

Qisqa nomi:

“Vatanparvar” axborot texnologiyalari markazi

keyingi o'rinlarda — **“Operator”**.

1.3. Mazkur Siyosat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, jumladan **“Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni** va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan.

1.4. Siyosat quyidagi tizimlarda Operator tomonidan amalga oshiriladigan shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga tatbiq etiladi:

- e-avtomaktab.uz;
- e-test.uz;
- e-license.uz;
- Operatorning ichki statistik, monitoring va boshqaruv axborot tizimlari;
- mazkur tizimlar bilan qonuniy asosda integratsiya qilingan boshqa axborot tizimlari.

1.5. Foydalanuvchi e-avtomaktab.uz platformasiga birinchi marta kirishda mazkur Siyosat bilan tanishadi va uni **alohida ravishda tasdiqlaydi**.

1.6. Foydalanuvchi Siyosatni tasdiqlamasa, e-avtomaktab.uz platformasidan foydalanishga ruxsat berilmaydi.

1.7. Mazkur Siyosat Ommaviy oferta bilan birgalikda qo'llaniladi.

2. ASOSIY TUSHUNCHALAR

2.1. **Foydalanuvchi** — e-avtomaktab.uz platformasidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxs.

2.2. **Shaxsga doir ma'lumotlar** — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni bevosita yoxud bilvosita aniqlash imkonini beradigan axborot.

2.3. **Biometrik ma'lumotlar** — Foydalanuvchining anatomik yoki fiziologik xususiyatlari asosida uning shaxsini aniqlash imkonini beradigan shaxsga doir ma'lumotlar.

2.4. **Qayta ishlash** — shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, aniqlashtirish, o'zgartirish, foydalanish, uzatish, taqdim etish, bloklash, o'chirish, yo'q qilish va boshqa tegishli operatsiyalar.

2.5. **Uchinchi tomon** — Operator va Foydalanuvchidan tashqari, qonuniy asosga ko'ra shaxsga doir ma'lumot olishi yoki qayta ishlashi mumkin bo'lgan shaxs yoki tashkilot.

3. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH TAMOYILLARI

Operator shaxsga doir ma'lumotlarga quyidagi tamoyillar asosida ishlov beradi:

- 3.1. qonuniylik;
 - 3.2. ma'lum va qonuniy maqsad mavjudligi;
 - 3.3. maqsadga muvofiqlik;
 - 3.4. qayta ishlanadigan ma'lumotlar hajmini zarur darajada cheklash;
 - 3.5. ma'lumotlarning aniqligini ta'minlash;
 - 3.6. ma'lumotlarni ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish;
 - 3.7. ma'lumotlarni faqat zarur muddat davomida saqlash;
 - 3.8. vakolatga asoslangan kirish;
 - 3.9. ma'lumotlarni maqsaddan tashqari foydalanmaslik;
 - 3.10. qonuniy asos mavjud bo'lmaganda uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik.
-

4. MA'LUMOTLARNI OLISH MANBALARI

Operator Foydalanuvchiga oid ma'lumotlarni quyidagi manbalardan olishi mumkin:

- 4.1. tegishli avtomaktabning vakolatli moderatori orqali;
 - 4.2. Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi va e-avtotalim axborot tizimi hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa qonuniy manbalardan;
 - 4.3. Foydalanuvchining Platformadan foydalanishi jarayonida avtomatik shakllanadigan ma'lumotlardan;
 - 4.4. Foydalanuvchining o'zi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan;
 - 4.5. to'lov tizimlaridan qaytadigan tranzaksiya natijalaridan;
 - 4.6. Telegram va SMS xizmatlari orqali shakllanadigan texnik ma'lumotlardan;
 - 4.7. Foydalanuvchining ichki imtihon jarayonidan.
-

5. IDENTIFIKATSIYA MA'LUMOTLARI

Operator quyidagi ma'lumotlarni qayta ishlashi mumkin:

- familiya;
- ism;
- otasining ismi;
- tug'ilgan sana;
- jinsi;
- JSHSHIR/PINFL;
- pasport seriyasi;
- pasport raqami;
- fuqaroligi;
- rasm.

5.1. Tug'ilgan sana asosan Foydalanuvchini identifikatsiya qilish maqsadida ishlatiladi.

5.2. Jins haqidagi ma'lumot statistika va hisobotlarda, jumladan:

- avtomaktablar kesimida;
- hududlar kesimida;
- ta'lim toifalari kesimida,

ishlatilishi mumkin.

5.3. Fuqarolik va pasportga oid qo'shimcha ma'lumotlar Foydalanuvchini identifikatsiya qilish va tegishli hujjatlarni shakllantirish maqsadida ishlatiladi.

5.4 Foydalanuvchi rasmi Platformada avatar, tegishli hujjatlarni shakllantirishda, ichki imtihon topshirish uchun o'quvchi shaxsini aniqlashda foydalaniladi.

6. ALOQA MA'LUMOTLARI

Operator quyidagilarni qayta ishlashi mumkin:

- Foydalanuvchining telefon raqami;
- Telegram chat ID;
- Telegram username.

6.1. Telefon raqami quyidagi maqsadlarda ishlatiladi:

- Platformaga kirish;
- parolni tiklash;
- telefon raqamini tasdiqlash;
- Telegram akkauntini tasdiqlash;
- tegishli SMSlarni yuborish;
- Foydalanuvchi bilan xizmat yuzasidan bog'lanish.

6.2. Telegram chat ID va username:

- Telegram bot orqali Foydalanuvchini aniqlash;
- parolni olish yoki o'zgartirish;
- xizmatga oid bildirishnomalarni yuborish

maqsadida ishlatiladi.

6.3. Operator ushbu aloqa ma'lumotlaridan reklama va marketing xabarlarini yuborish uchun foydalanishi mumkin.

7. PROFIL RASMI

7.1. Foydalanuvchining o'zi taqdim etgan profil rasmi avtomatik moderatori tomonidan Platformaga yuklanishi mumkin.

7.2. Profil rasmi:

- shaxsiy kabinetda ko'rsatish;
- Foydalanuvchini identifikatsiya qilish;
- ichki imtihon vaqtida shaxsni tasdiqlash;
- tegishli hujjatlarni shakllantirish

uchun ishlatilishi mumkin.

7.3. Profil rasmi yangilanganda eski rasm yangi rasm bilan almashtiriladi va alohida tarixiy nusxa sifatida saqlanmaydi.

8. TIBBIY HUJJATGA OID MA'LUMOT

8.1. Platformada Foydalanuvchining tibbiy ma'lumotnomasi raqami (083) saqlanishi mumkin.

8.2. Operator Platformada Foydalanuvchining to'liq tibbiy kartasi yoki tibbiy tashxisini saqlamaydi.

8.3. Tibbiy ma'lumotnoma raqami Foydalanuvchining tegishli hujjatlarini shakllantirish va o'quv jarayonini rasmiylashtirish maqsadida ishlatiladi.

9. TA'LIMGA OID MA'LUMOTLAR

Operator quyidagi ta'lim ma'lumotlarini qayta ishlashi mumkin:

- avtomaktab/filial;
- ta'lim guruhi;
- ta'lim toifasi;
- ta'lim boshlanish sanasi;
- ta'lim tugash sanasi;
- dars jadvali;
- o'qituvchilar;
- biriktirilgan ta'lim avtomototransportlari;
- ta'lim holati;
- yakuniy ichki imtihon natijalari;
- shartnoma, guvohnoma va tegishli ta'lim hujjatlari;
- davomati.

Ushbu ma'lumotlar:

9.1. o'quv jarayonini boshqarish;

9.2. dars jadvalini shakllantirish;

9.3. davomatni yuritish;

9.4. Foydalanuvchini ichki imtihonga qo'yish;

9.5. shartnoma, guvohnoma va tegishli ta'lim hujjatlarini shakllantirish;

9.6. statistika va hisobotlarni yuritish

maqsadlarida qayta ishlanadi.

10. DAVOMAT MA'LUMOTLARI

Operator quyidagilarni saqlashi mumkin:

- dars sanasi;
- qatnashgan yoki qatnashmaganlik holati;
- davomat foizi;
- davomatga oid tegishli texnik yozuvlar.

Davomat ma'lumotlari:

10.1. o'quv jarayonini nazorat qilish;

10.2. ichki imtihonga qo'yish yoki cheklash shartlarini tekshirish;

10.3. avtomaktab hisobotlarini yuritish;

10.4. tegishli qonuniy asos mavjud bo'lganda IHMA integratsiyasi orqali ma'lumot taqdim etish

uchun ishlatiladi.

11. ICHKI IMTIHON MA'LUMOTLARI

Operator quyidagilarni qayta ishlashi mumkin:

- nazariy imtihon balli;
- amaliy imtihon natijasi;
- holati;
- imtihon sanasi;
- urinishlar soni;
- imtihon boshlanish va tugash vaqti;
- nazariy imtihon vaqtida olingan kamera rasmlari
- nazariy imtihonda tushgan savollar va belgilangan javoblar.

Ushbu ma'lumotlar:

11.1. Foydalanuvchining ichki imtihondan o'tganligini aniqlash;

11.2. guvohnoma berish jarayoni;

11.3. e-avtotalim/YXHH tizimiga ma'lumot yuborish;

11.4. avtomaktab hisobotlari;

11.5. nizolar, e'tirozlar va tekshiruvlarda dalil sifatida foydalanish

maqsadida qayta ishlanadi.

12. BIOMETRIK MA'LUMOTLAR VA FACE ID

12.1. e-test.uz orqali ichki imtihon topshirishda Foydalanuvchining shaxsini aniqlash maqsadida Face ID texnologiyasi qo'llaniladi.

12.2. Foydalanuvchining Platformada mavjud profil rasmi kamera orqali real vaqtda olingan yuz tasviri bilan solishtiriladi.

12.3. Dastlabki identifikatsiya jarayonida kameradan olingan tasvir solishtirish tugagach doimiy fayl sifatida saqlanmaydi.

12.4. Ichki imtihon davomida imtihonni aynan Foydalanuvchining o'zi bajarayotganini tekshirish maqsadida face detection mexanizmi ishlashi mumkin.

12.5. Ichki imtihon davomida tasodifiy vaqt oralig'ida **1 tadan 5 tagacha nazorat fotosurati** olinishi va serverga saqlanishi mumkin.

12.6. Ushbu fotosuratlar:

- imtihonni aynan Foydalanuvchi bajarganligini tasdiqlash;
- qoidabuzarliklarni aniqlash;
- ichki imtihon natijasiga e'tirozni ko'rib chiqish;
- tegishli tekshiruvlarda dalil sifatida foydalanish

uchun saqlanadi.

12.7. Ichki imtihon nazorat fotosuratlariga faqat tegishli vakolati mavjud:

- "Vatanparvar" axborot texnologiyalar markazining vakolatli administratori;
- Foydalanuvchi ta'lim olayotgan avtomaktabning vakolatli moderatori

kirishi mumkin.

12.8. Biometrik identifikatsiya talab qilinadigan ichki imtihonda tegishli rozilik berilmasa, Foydalanuvchi e-test.uz orqali ushbu imtihonni topshira olmaydi.

12.9. Biometrik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi hududidagi Operator infratuzilmasida saqlanadi.

13. TO'LOV MA'LUMOTLARI

Operator Foydalanuvchining avtomaktabga qilgan to'lovlari bo'yicha:

- to'lov summasi;
- to'lov sanasi;
- foydalanilgan to'lov tizimi;
- tranzaksiya ID;
- tranzaksiya holati;
- to'lov izohi

kabi ma'lumotlarni qayta ishlashi mumkin.

13.1. Foydalanuvchining:

- bank karta raqami;
- karta amal qilish muddati;
- CVV/CVC;
- bank hisob raqami;
- boshqa karta rekvizitlari

Operator bazasida saqlanmaydi.

13.2. Platformada mavjud bank MFOsi, bank hisob raqami, bank nomi va STIR kabi rekvizitlar tegishli avtomaktabga tegishli bo'lishi mumkin.

13.3. To'lov ma'lumotlari:

- qarzdorlikni aniqlash;
- shaxsiy kabinetda to'lov tarixini ko'rsatish;
- qarzdorlik haqidagi xizmat xabarlarini yuborish;
- avtomaktab hisobchisi uchun hisobot;
- avtomaktab statistikasi;
- IHMAga zarur moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etish;
- to'lov tizimlari bilan tranzaksiyalarni tekshirish va solishtirish

uchun ishlatiladi.

14. TEXNIK VA AUDIT MA'LUMOTLARI

Operator axborot xavfsizligi, Platforma ishlashi va nizolarni tekshirish maqsadida quyidagi ma'lumotlarni qayd etishi mumkin:

- Foydalanuvchi ID;
- kirish sanasi-vaqti;
- chiqish sanasi-vaqti;
- IP-manzil;
- brauzer haqidagi ma'lumot;
- qurilma haqidagi ma'lumot;
- sessiya ID;
- login muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lganligi;
- tashrif buyurilgan sahifa URL yoki nomi;
- sahifaga kirilgan vaqt;
- qo'shimcha texnik metama'lumotlar;
- test boshlanish va tugash vaqti.

14.1. IP-manzil tarmoq va brauzer infratuzilmasi Operatorga taqdim eta oladigan ko'rinishda qayd etiladi.

14.2. Telefon raqamining o'zgartirilishi va parolning o'zgartirilishi/tiklanishi bo'yicha alohida tarixiy log saqlanmaydi.

15. OFERTA VA SIYOSAT AKSEPTI

Operator Foydalanuvchining huquqiy hujjatlarni tasdiqlaganligini isbotlash maqsadida:

- Foydalanuvchi identifikatori;
- hujjat turi;
- hujjat versiyasi;
- tasdiqlangan til;
- tasdiqlash sanasi-vaqti;
- mavjud IP yoki texnik identifikator;
- tasdiqlash statusi

haqidagi ma'lumotlarni saqlashi mumkin.

15.1. Operator Oferta va Siyosatning eski versiyalarini ichki arxivda PDF/HTML shaklida va versiya raqami bilan saqlaydi.

16. SMS VA TELEGRAM LOGlari

Operator SMS va Telegram orqali xizmat xabarlarini yuborishda quyidagilarni qayd etishi mumkin:

- telefon raqami yoki Telegram chat ID;
- yuborilgan vaqt;
- xabar turi;
- yuborilgan xabar matni;
- yuborish holati.

16.1. Xizmat xabarlari, jumladan:

- login/parol;
- parolni tiklash;
- qarzдорlik

haqidagi xabarlarni o'z ichiga olishi mumkin.

16.2. Qarzдорlik xabarida:

- qarzдорlik summasi;

- to'lov muddati;
- avtomaktab nomi

ko'rsatilishi mumkin.

17. IHMA BILAN MA'LUMOT ALMASHINUVI

17.1. Platforma O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi **Ijtimoiy himoya milliy agentligi (IHMA)** bilan qonuniy asos mavjud bo'lgan hollarda axborot almashishi mumkin.

17.2. IHMA API orqali tegishli so'rov yuboradi va Platforma so'rovga muvofiq zarur ma'lumotni qaytaradi.

17.3. API turi va so'rov vakolatiga qarab quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishi mumkin:

- PINFL;
- F.I.Sh.;
- tug'ilgan sana;
- tegishli avtomaktab;
- ta'lim guruhi;
- ta'lim toifasi;
- ta'lim holati;
- ta'lim boshlanish va tugash sanalari;
- davomat holati;
- davomat foizi;
- shartnoma raqami va sanasi;
- ta'lim narxi;
- to'langan summa;
- qarzdorlik summasi;
- to'lovlar tarixi.

17.4. Avtomaktabga tegishli:

- STIR;
- MFO;
- bank nomi;
- bank hisob raqami;
- hudud va filial rekvizitlari

Foydalanuvchining shaxsiy bank rekvizitlari hisoblanmaydi.

17.5. IHMA API so'rovlari bo'yicha:

- so'ralgan PINFL;
- so'rov vaqti;

- yuborilgan javob;
- status yoki xatolik;
- IP yoki boshqa texnik identifikator

log qilinishi mumkin.

18. e-avtotalim / YXHH INTEGRATSIYASI

18.1. Foydalanuvchiga oid tegishli ma'lumotlar qonuniy integratsiya orqali e-avtotalim tizimidan Platformaga olinishi mumkin.

18.2. e-avtomaktab Platformasi Foydalanuvchining **ichki nazariy va amaliy imtihon natijalarini** e-avtotalim/YXHH tizimiga yuborishi mumkin.

18.3. Mazkur integratsiya bo'yicha quyidagi loglar saqlanishi mumkin:

- o'quvchi identifikatori/PINFL;
 - yuborilgan vaqt;
 - nazariy imtihon natijasi;
 - amaliy imtihon natijasi;
 - javob/status;
 - xatolik matni.
-

19. TO'LOV TIZIMLARIGA MA'LUMOT UZATISH

Platforma avtomaktabga qarab quyidagi to'lov tizimlari bilan integratsiyada ishlashi mumkin:

- Click;
- Payme;
- Paynet;
- GlobalPay;
- Uzum Bank.

19.1. To'lov operatsiyasini identifikatsiya qilish uchun, jumladan:

- F.I.Sh.;
- Foydalanuvchi ID;
- guruh nomi;
- avtomaktab nomi;
- ta'lim narxi;
- to'langan summa;
- to'lanishi lozim bo'lgan/qolgan summa

kabi ma'lumotlar uzatilishi mumkin.

19.2. To'lov integratsiya loglarida:

- Foydalanuvchi ID;
- tranzaksiya ID;
- so'rov vaqti;
- summa;
- javob/status;
- xatolik matni

saqlanishi mumkin.

19.3. Bank kartasining to'liq rekvizitlari Operatorga berilmaydi va Operator bazasida saqlanmaydi.

20. ESKIZ.UZ

20.1. SMS xabarlarini yuborish uchun **Eskiz.uz** xizmatidan foydalaniladi.

20.2. SMS yuborish uchun Eskiz.uz'ga:

- telefon raqami;
- SMS matni;
- xabar turi

uzatilishi mumkin.

20.3. PINFL va pasport ma'lumotlari SMS yuborish maqsadida Eskiz.uz'ga uzatilmaydi.

21. GOOGLE reCAPTCHA

21.1. e-avtomaktab.uz saytida avtomatlashtirilgan zararli so'rovlar va botlardan himoya qilish maqsadida Google reCAPTCHA ishlatilishi mumkin.

21.2. reCAPTCHA ishlashi vaqtida Google tomonidan:

- IP-manzil;
- brauzer va qurilma haqidagi texnik ma'lumotlar;
- so'rovga oid metama'lumotlar

qayta ishlanishi mumkin.

21.3. reCAPTCHA xavfsizlik uchun zarur texnik xizmat sifatida qo'llaniladi.

22. GOOGLE ANALYTICS VA YANDEX METRICA

22.1. e-avtomaktab.uz saytida foydalanish statistikasi va Platformani rivojlantirish maqsadida:

- Google Analytics;
- Yandex Metrica

xizmatlaridan foydalanilishi mumkin.

22.2. Analitik xizmatlar foydalanuvchining tegishli cookie roziligidan keyin ishga tushiriladi.

22.3. Foydalanuvchi cookie-bannerda:

- **“Qabul qilaman”**;
- **“Rad etaman”**

variantlaridan birini tanlashi mumkin.

22.4. Analitik cookie'lar rad etilganda Google Analytics va Yandex Metrica analitik kuzatuv i shga tushirilmasligi lozim.

22.5. Foydalanuvchi keyinchalik **“Cookie sozlamalari”** orqali tanlovini o'zgartirishi mumkin.

22.6. Analitik servislar:

- IP-manzil;
- cookie identifikatorlari;
- qurilma va brauzer ma'lumotlari;
- saytga tashrif;
- sahifalar bo'yicha navigatsiya;
- texnik foydalanish hodisalari

kabi ma'lumotlarni qayta ishlashi mumkin.

23. TRANSCHEGARAVIY MA'LUMOT UZATISH

23.1. e-avtomaktab.uz, e-test.uz va asosiy ma'lumotlar bazalari Operatorning O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan server infratuzilmasida saqlanadi.

23.2. Operatorning fizik serverlari va VPS infratuzilmasi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan.

23.3. Foydalanuvchining biometrik ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi hududida saqlanadi.

23.4. Google Analytics, Google reCAPTCHA, Yandex Metrica yoki boshqa tashqi servislar bilan ishlash jarayonida ayrim biometrik bo'lmagan texnik ma'lumotlarning xorijiy infratuzilmada qayta ishlanishi ehtimoli mavjud.

23.5. Bunday transchegaraviy uzatish faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan asoslar va shartlarga rioya qilingan holda amalga oshirilishi lozim.

23.6. Operator biometrik nazorat fotosuratlarini Google Analytics, Yandex Metrica yoki boshqa analitik platformalarga uzatmaydi.

24. e-license.uz VA GUVOHNOMA MA'LUMOTLARI

24.1. e-license.uz Foydalanuvchining guvohnomasini olish va haqiqiylikini tekshirish imkonini beradi.

24.2. Guvohnomani shakllantirishda:

- F.I.Sh.;
- tug'ilgan sana;
- pasport seriyasi;
- pasport raqami;
- avtomaktab/filial;
- guvohnoma raqami;
- guvohnoma berilgan sana;
- guvohnoma kodi

kabi ma'lumotlar ishlatilishi mumkin.

24.3. Guvohnoma PDF fayli so'rov vaqtida dinamik generatsiya qilinadi.

24.4. Generatsiya qilingan vaqtinchalik fayl foydalanuvchiga uzatilgach serverdan avtomatik o'chiriladi.

24.5. Guvohnoma PDF faylida pasport seriyasi va raqami ko'rsatilishi mumkin.

24.6. PINFL guvohnoma PDF faylida ko'rsatilmaydi.

25. GUVOHNOMANI OCHIQ TEKSHIRISH

25.1. e-license.uz orqali guvohnomani QR kod yoki guvohnoma raqami bilan login qilmasdan tekshirish imkoniyati mavjud.

25.2. Ochiq tekshiruvda, jumladan:

- F.I.Sh.;
- tug'ilgan sana;

- avtomaktab/filial;
- guvohnoma raqami;
- guvohnoma berilgan sana

ko'rsatilishi mumkin.

25.3. PINFL va pasport rekvizitlari ochiq tekshiruv sahifasida maskalangan shaklda ko'rsatiladi.

25.4. Foydalanuvchining fotosurati ochiq guvohnoma tekshiruv sahifasida ko'rsatilmaydi.

25.5. Guvohnomani avtomatlashtirilgan ommaviy tekshirishga qarshi texnik cheklovlar qo'llaniladi.

25.6. Tekshiruv loglarida:

- tekshirilgan guvohnoma;
- tekshiruv sanasi-vaqti;
- IP-manzil;
- brauzer/qurilma haqidagi texnik ma'lumot

saqlanishi mumkin.

26. SHARTNOMA HUJJATLARI

26.1. Foydalanuvchining avtomaktab bilan tuziladigan shartnomasi avtomaktabning vakolatli moderatori tomonidan Platforma orqali generatsiya qilinishi mumkin.

26.2. Shartnomada, jumladan:

- F.I.Sh.;
- tug'ilgan sana;
- PINFL;
- pasport ma'lumotlari;
- tibbiy ma'lumotnoma raqami;
- guruh;
- ta'lim boshlanish va tugash sanalari;
- o'qituvchi;
- amaliyot o'qituvchilari;
- avtomaktab;
- ta'lim toifasi;
- tegishli guvohnoma ma'lumotlari

ishlatilishi mumkin.

26.3. Shartnoma PDF fayli yuklash vaqtida dinamik generatsiya qilinadi.

26.4. Vaqtinchalik PDF serverda doimiy saqlanmaydi va generatsiyadan keyin o'chiriladi.

26.5. Shartnomani Platformadan yuklab olish huquqi tegishli avtomaktab moderatoriga beriladi.

26.6. Moderator shartnomani qog'oz shaklida chiqarib Foydalanuvchiga taqdim etadi.

26.7. Imzolangan qog'oz shartnoma tegishli avtomaktab arxivida qonunchilikda belgilangan tartibda saqlanadi.

27. AVTOMAKTAB XODIMLARINING KIRISH HUQUQI

27.1. Avtomaktab xodimlari faqat o'z xizmat vazifasi va o'z avtomaktabiga tegishli o'quvchilar doirasida shaxsga doir ma'lumotlarga kirishi mumkin.

27.2. Tizimda rolga asoslangan kirish qo'llaniladi.

27.3. Tegishli rollarga, jumladan:

- direktor;
- moderator;
- hisobchi;
- o'qituvchi

kirishi mumkin.

27.4. Har bir rol faqat o'z vazifasini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni ko'radi.

27.5. Avtomaktab xodimlariga pasport rekvizitlari kabi cheklangan identifikatsiya ma'lumotlari ularning vazifasiga zarur bo'lmagan hajmda ochilmaydi.

27.6. Avtomaktab xodimlari vakolat doirasidagi ma'lumotlarni:

- Excel;
- PDF;
- boshqa xizmat hisobotlari

ko'rinishida eksport qilishi mumkin.

27.7. Eksport qilingan fayllar:

- faqat xizmat kompyuterlarida saqlanishi;
- uchinchi shaxslarga noqonuniy yuborilmasligi;
- xizmat zarurati tugagach o'chirilishi

lozim.

28. OPERATOR XODIMLARINING KIRISH HUQUQI

Xizmat vazifasi doirasida Platforma ma'lumotlariga:

- tizim administratorlari;
- vakolatli dasturchilar;
- texnik yordam xodimlari;
- Operatorning vakolatli operatorlari;
- rahbariyat;
- yuridik bo'lim

kirishi mumkin.

28.1. Bunday kirish vakolat va xizmat vazifasiga qarab cheklanadi.

28.2. Xodimlar o'z vazifasidan tashqari maqsadda ma'lumotlardan foydalanishi mumkin emas.

29. AVTOMAKTABNI ALMASHTIRISH

29.1. Foydalanuvchi boshqa avtomaktab yoki filialga yozma ariza asosida ko'chirilishi mumkin.

29.2. Ko'chirilgandan keyin avvalgi avtomaktabning Foydalanuvchi ma'lumotlariga kirish huquqi bekor qilinadi.

29.3. Yangi avtomaktab o'quv jarayonini davom ettirish uchun zarur:

- davomat;
- to'lov;
- ichki imtihon

tarixini ko'rishi mumkin.

29.4. Cheklangan identifikatsiya ma'lumotlariga nisbatan avvalgi kirish cheklovlari saqlanadi.

30. MA'LUMOTLARNI SAQLASH MUDDATLARI

Operator ma'lumotlarni maqsadga muvofiq hamda mazkur Siyosatda belgilangan muddatlarda saqlaydi.

30.1. Profil rasmi

Ta'lim tugaganidan keyin **3 yil**.

30.2. Telefon raqami

Ta'lim tugaganidan keyin **3 yil**.

30.3. Telegram chat ID va username

Ta'lim tugaganidan keyin **3 yil**.

30.4. Tibbiy ma'lumotnoma raqami

Ta'lim tugaganidan keyin **3 yil**.

30.5. Ichki imtihondagi nazorat fotosuratlari

Olingan kundan boshlab **5 yil**.

30.6. PINFL va pasport ma'lumotlari

Ta'lim tugaganidan keyin **10 yil**.

30.7. Asosiy identifikatsiya va ta'lim tarixining tegishli yozuvlari

Ta'lim tugaganidan keyin **10 yilgacha**, agar ushbu Siyosatda ayrim ma'lumot uchun qisqaroq muddat belgilangan bo'lmasa.

30.8. Oferta va Siyosat aksepti yozuvlari

Ta'lim tugaganidan keyin **10 yil**.

30.9. Asosiy audit loglari

Ta'lim tugaganidan keyin **10 yil**.

30.10. SMS va Telegram xabar loglari

3 yil.

30.11. IHMA integratsiya loglari

Ta'lim tugaganidan keyin **3 yil**.

30.12. e-avtotalim/YXHH integratsiya loglari

Ta'lim tugaganidan keyin **3 yil**.

30.13. To'lov tizimlari integratsiya loglari

Ta'lim tugaganidan keyin **3 yil**.

30.14. e-license.uz guvohnoma tekshiruv loglari

1 yil.

30.15. Buxgalteriya va to'lov hujjatlari

O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya, soliq va arxiv qonunchiligida nazarda tutilgan muddat davomida.

30.16. Backup nusxalar

30 kun.

30.17. Qonunchilik, sud nizosi, tekshiruv yoki boshqa mustaqil qonuniy asos saqlashni talab qilsa, tegishli ma'lumot ushbu asos mavjud bo'lgan zarur muddat davomida saqlanishi mumkin.

30.18. Saqlash muddati tugagach va boshqa qonuniy asos mavjud bo'lmasa, ma'lumot o'chiriladi, yo'q qilinadi yoki qayta identifikatsiya qilib bo'lmaydigan darajada anonimlashtiriladi.

31. ZAXIRA NUSXALARI

31.1. Operator axborot tizimlarining uzluksizligi va ma'lumotlarni tiklash imkoniyatini ta'minlash maqsadida server fayllarining backup nusxalarini yaratishi mumkin.

31.2. Backup nusxalar odatda **30 kun** saqlanadi.

31.3. Backup nusxalariga faqat Operatorning vakolatli:

- tizim administratorlari;
- texnik zarurat bo'lgan hollarda vakolatli dasturchilari

kirishi mumkin.

31.4. Serverlar Operatorning O'zbekiston Respublikasi hududidagi o'z infratuzilmasida joylashgan.

32. AXBOROT XAVFSIZLIGI

Operator shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish uchun imkon qadar tegishli huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni qo'llaydi.

Jumladan:

32.1. ma'lumot almashinuvida HTTPS/TLS ishlatiladi;

32.2. foydalanuvchi parollari hash qilingan holda saqlanadi;

32.3. ayrim maxsus ma'lumotlar shifrlanishi mumkin;

32.4. barcha bazaviy maydonlar diskda alohida shifrlangan degan kafolat berilmaydi;

- 32.5. rolga asoslangan kirish nazorati qo'llaniladi;
 - 32.6. bir vaqtning o'zida bitta faol foydalanuvchi sessiyasi qo'llaniladi;
 - 32.7. yangi qurilmadan kirilganda oldingi sessiya avtomatik tugatilishi mumkin;
 - 32.8. reCAPTCHA kabi botlardan himoya mexanizmlari qo'llaniladi;
 - 32.9. texnik va audit loglari yuritiladi;
 - 32.10. server infratuzilmasiga kirish cheklanadi;
 - 32.11. ma'lumotlar zaxira nusxalari olinadi.
-

33. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI UCHINCHI SHAXSLARGA BERISH

Operator shaxsga doir ma'lumotlarni:

- 33.1. Foydalanuvchining roziligi;
- 33.2. shartnomani yoki Platforma funksiyalarini bajarish zarurati;
- 33.3. qonunchilikda belgilangan majburiyat;
- 33.4. vakolatli davlat organining qonuniy so'rovi;
- 33.5. boshqa qonuniy asos

mavjud bo'lgan hollardagina uchinchi tomonlarga taqdim etadi.

33.6. Foydalanuvchi ma'lumotlari, jumladan, qonuniy asos mavjud bo'lganda:

- sud;
- tergov organlari;
- prokuratura;
- YXHH;
- boshqa vakolatli davlat organlariga

taqdim etilishi mumkin.

33.7. Operator qonuniy asos mavjud bo'lmaganda shaxsga doir ma'lumotlarni sotmaydi yoki reklama maqsadida uchinchi shaxslarga bermaydi.

34. FOYDALANUVCHINING HUQUQLARI

Foydalanuvchi qonunchilik doirasida:

- 34.1. Operator tomonidan o'zi haqida qanday ma'lumot qayta ishlanayotganini bilish;

- 34.2. o'z ma'lumotlari bilan tanishish;
 - 34.3. noto'g'ri yoki eskirgan ma'lumotlarni tuzatishni talab qilish;
 - 34.4. qonuniy asos mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni o'chirishni talab qilish;
 - 34.5. ma'lumotlarni qayta ishlashga berilgan rozilikni qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda qaytarib olish;
 - 34.6. ma'lumotlardan maqsaddan tashqari foydalanishga e'tiroz bildirish;
 - 34.7. ma'lumotlar qaysi tashkilotlarga taqdim etilgani haqida mavjud axborotni olish;
 - 34.8. Operatorga murojaat qilish;
 - 34.9. vakolatli davlat organlariga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.
-

35. FOYDALANUVCHINING MA'LUMOTLARI BILAN TANISHISHI

- 35.1. Foydalanuvchi o'z shaxsini tasdiqlagandan keyin o'zi haqida Operator tasarrufida mavjud ma'lumotlar bilan tanishishni so'rashi mumkin.
 - 35.2. Operator odatda ma'lumotlarni Foydalanuvchiga ko'rib chiqish imkonini beradi.
 - 35.3. Qonunchilikda ma'lumot nusxasini taqdim etish majburiyati nazarda tutilgan hollarda, Operator qonunchilik talablariga muvofiq harakat qiladi.
-

36. SHAXSNI TASDIQLASH

Shaxsga doir ma'lumotlarga oid murojaatda Operator murojaat qiluvchining shaxsini quyidagilar orqali tekshirishi mumkin:

- telefon raqamiga SMS-kod yuborish;
 - PINFL/pasport ma'lumotlari orqali;
 - avtomaktab moderatori tasdig'i orqali;
 - Telegram akkauntiga biriktirilgan telefon raqami orqali;
 - boshqa ishonchli identifikatsiya vositasi orqali.
-

37. MA'LUMOTNI TUZATISH

- 37.1. Foydalanuvchi noto'g'ri ma'lumotni tuzatish uchun murojaat qilishi mumkin.

37.2. Tuzatishni asoslash uchun:

- pasport;
- boshqa rasmiy hujjat;
- avtomaktab moderatorining tasdig'i

talab qilinishi mumkin.

37.3. Bunday murojaat Operatorning ichki tartibiga ko'ra imkon qadar **10 ish kuni ichida** ko'rib chiqiladi, qonunchilikda boshqa muddat nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

37.4. Murojaat rad etilsa, rad etish sababi Foydalanuvchiga email, Telegram yoki avtomaktab moderatori orqali tushuntiriladi.

38. MA'LUMOTNI O'CHIRISH

38.1. Foydalanuvchi shaxsga doir ma'lumotlarini o'chirish yuzasidan avtomaktab moderatoriga murojaat qilishi mumkin.

38.2. Bunday murojaat qabul qilinganda Foydalanuvchining Platformaga kirishi xavfsizlik maqsadida darhol bloklanishi mumkin.

38.3. O'chirish bo'yicha murojaat ichki tartibda imkon qadar **15 ish kuni ichida** ko'rib chiqiladi, qonunchilikda boshqa tartib nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

38.4. Qonunchilikda saqlash majburiyati mavjud bo'lmagan va qayta ishlash uchun boshqa qonuniy asos qolmagan ma'lumotlar o'chiriladi yoki yo'q qilinadi.

38.5. Soliq, buxgalteriya, arxiv, sud, tergov, tekshiruv yoki boshqa qonuniy majburiyat sabab saqlanishi shart bo'lgan ma'lumotlar tegishli qonuniy asos amal qiladigan muddatgacha saqlanishi mumkin.

38.6. O'chirish bo'yicha amalga oshirilgan harakatlar haqida Foydalanuvchiga u murojaat qilgan kanal orqali xabar beriladi.

39. ROZILIKNI QAYTARIB OLISH

39.1. Foydalanuvchi shaxsga doir ma'lumotlarni rozilikka asoslangan qayta ishlash bo'yicha roziligini avtomaktab moderatoriga murojaat qilish orqali qaytarib olishi mumkin.

39.2. Moderator ushbu murojaatni Operatorga yuboradi.

39.3. Rozilik qaytarib olingach, Platformaga kirish to'liq cheklanishi mumkin.

39.4. Rozilikni qaytarib olish:

- rozilik qaytarib olingunga qadar amalga oshirilgan qonuniy qayta ishlashni noqonuniy qilib qo'ymaydi;

- Operatorning boshqa qonuniy asosga ko'ra ma'lumot saqlash majburiyatini avtomatik bekor qilmaydi.
-

40. AKKAUNT BLOKLANGANDAN KEYINGI MA'LUMOTLAR

40.1. Akkaunt bloklangach Foydalanuvchining Platformadan odatiy foydalanishi to'xtatiladi.

40.2. Ma'lumotlar tegishli saqlash muddatlari davomida saqlanishi mumkin.

40.3. Nizo, tekshiruv, hisobot yoki qonuniy so'rov mavjud bo'lsa, vakolatli xodimlar ma'lumotlarga xizmat zarurati doirasida kirishi mumkin.

41. VOYAGA YETMAGAN FOYDALANUVCHILAR

41.1. Ayrim haydovchilik toifalari bo'yicha 16–17 yoshli Foydalanuvchilar ham Platformadan foydalanishi mumkin.

41.2. Bunday Foydalanuvchi Oferta va Maxfiylik siyosatini Platformada mustaqil tasdiqlashi mumkin.

41.3. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida muayyan qayta ishlash yoki yuridik harakat uchun ota-ona, homiy yoki boshqa qonuniy vakil roziligi talab etilgan hollarda Operator bunday rozilikni talab qilish huquqiga ega.

41.4. Mazkur Siyosat qonunchilikda voyaga yetmagan shaxslar uchun nazarda tutilgan qo'shimcha kafolatlarni cheklamaydi.

42. SHAXSIY MA'LUMOTLAR BAZASINING DAVLAT REYESTRI

42.1. Operator shaxsga doir ma'lumotlar bazalarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda vakolatli davlat organining Davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazadi.

42.2. Davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazish natijasida tegishli reyestr raqami berilgach, ushbu ma'lumot mazkur Siyosatda yoki Operatorning tegishli axborot sahifasida ko'rsatilishi mumkin.

43. XAVFSIZLIK HODISALARI

43.1. Operator shaxsga doir ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, ularning yo'qolishi, o'zgartirilishi yoki oshkor bo'lishi aniqlanganda hodisani tekshirish va oqibatlarini cheklash choralarini ko'radi.

43.2. Qonunchilik talab qiladigan hollarda Operator:

- vakolatli davlat organini;
- tegishli Foydalanuvchilarni

belgilangan tartibda xabardor qiladi.

43.3. Xabardor qilish uchun mavjud SMS, email, Telegram, Platforma yoki boshqa aloqa vositalaridan foydalanilishi mumkin.

44. AVTOMATLASHTIRILGAN PROFILLASH

44.1. Operator Foydalanuvchini "riskli", "muammoli" yoki boshqa shunga o'xshash toifalarga ajratib, Foydalanuvchi uchun mustaqil huquqiy oqibat yuzaga keltiruvchi avtomatlashtirilgan profiling tizimini qo'llamaydi.

44.2. Davomat, qarzdorlik, ta'lim holati va ichki imtihon natijalari Platformaning odatiy funksiyalarini amalga oshirish uchun avtomatik hisoblanishi mumkin, biroq bu mazkur band ma'nosidagi mustaqil profiling hisoblanmaydi.

45. SIYOSATGA O'ZGARTIRISH KIRITISH

45.1. Operator mazkur Siyosatni qonunchilik, Platforma funksiyalari yoki ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlari o'zgarganda yangilashi mumkin.

45.2. Siyosat versiyalari:

- v1.0;
- v1.1;
- v2.0

shaklida yuritiladi.

45.3. Imlo, kontakt ma'lumotlari, band raqamlari yoki huquqiy mazmunni o'zgartirmaydigan kichik tahrirlar Foydalanuvchidan qayta tasdiqlashni talab qilmasligi mumkin.

45.4. Quyidagi holatlar muhim o'zgarish hisoblanadi:

- yangi turdagi shaxsga doir ma'lumot yig'ish;
- yangi tashqi integratsiya;
- biometrik ishlov tartibining sezilarli o'zgarishi;

- ma'lumotni saqlash muddatining uzayishi;
- Foydalanuvchining huquqlariga sezilarli ta'sir qiluvchi o'zgarish;
- ma'lumotlardan foydalanish maqsadining sezilarli kengayishi.

45.5. Muhim o'zgarishlarda Foydalanuvchidan yangi versiyani qayta tasdiqlash talab qilinishi mumkin.

45.6. Yangi talab qilinadigan Siyosat tasdiqlanmasa, Platformaga kirish cheklanishi mumkin.

46. SIYOSAT VERSIYALARINI SAQLASH

46.1. Foydalanuvchiga odatda Siyosatning amaldagi versiyasi ko'rsatiladi.

46.2. Operator avvalgi versiyalarni:

- PDF;
- HTML;
- boshqa o'zgarmas elektron shaklda

ichki arxivda saqlaydi.

46.3. Har bir versiya uchun uning versiya raqami va amal qilish sanasi qayd etiladi.

46.4. Foydalanuvchining qaysi versiyani tasdiqlagani aksept tarixida qayd etiladi.

47. MUROJAATLAR

Shaxsga doir ma'lumotlar bo'yicha Foydalanuvchi Operatorga:

Telefon:

+998 71 207 92 93

Elektron pochta:

info@vitc.uz

Telegram:

@eavtomaktab_admin

orqali murojaat qilishi mumkin.

47.1. Shuningdek, Foydalanuvchi o'zi ta'lim olayotgan avtomaktab moderatoriga murojaat qilishi mumkin.

47.2. Operator tomonida bunday murojaatlarni vakolat doirasida:

- operatorlar;
- tizim administratorlari;

- yuridik bo'lim

ko'rib chiqishi mumkin.

47.3. Javob Foydalanuvchining murojaat kanaliga qarab:

- email;
- Telegram;
- avtomaktab moderatori orqali;
- boshqa tegishli kanal

orqali taqdim etilishi mumkin.

48. OPERATOR REKVIZITLARI

To'liq nomi:

“VATANPARVAR TASHKILOTI MARKAZIY KENGASHI TASARRUFIDAGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MARKAZI” unitar korxonasi

Qisqa nomi:

“Vatanparvar” axborot texnologiyalari markazi

STIR:

307176844

Yuridik manzil:

Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Osiyo ko'chasi, 86A

Telefon:

+998 71 207 92 93

Elektron pochta:

info@vitc.uz

Telegram:

@eavtomaktab_admin

Asosiy veb-sayt:

e-avtomaktab.uz

49. HUJJAT TILLARI

49.1. Mazkur Siyosat:

- o'zbek tilida lotin yozuvida;
- o'zbek tilida kirill yozuvida;
- rus tilida

e'lon qilinishi mumkin.

49.2. Tahrirlar o'rtasida tafovut yuzaga kelgan taqdirda **o'zbek tilidagi lotin yozuvidagi matn ustuvor hisoblanadi.**

50. YAKUNIY QOIDALAR

50.1. Mazkur Siyosatda bevosita nazarda tutilmagan shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash masalalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi.

50.2. Mazkur Siyosat Foydalanuvchining qonunchilikda kafolatlangan huquqlarini cheklash sifatida talqin qilinmaydi.

50.3. Siyosatning ayrim qoidasi haqiqiy emas deb topilishi qolgan qoidalarning haqiqiylikiga ta'sir qilmaydi.

50.4. Operator shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlash uchun qonunchilikda nazarda tutilgan choralarni ko'radi.

Maxfiylik siyosati versiyasi: v1.0

Kuchga kirish sanasi: 2026-yil 20-avgust

Shaxsga doir ma'lumotlar bazasi Davlat reyestri raqami:

Davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgach kiritiladi.